

## **YURISTLAR JAMOASI HAMDA JAMIyatda SHAXSIY IMIjNI SHAKLLANTIRISH YO`L-YO`RIQLARI**

Ruzimuratova Sevinch Jamshid qizi

Termiz Davlat universiteti Yuridik fakulteti 323-guruh 1-bosqich talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada jamiyatda yuristlar jamoasini shakllantirish, ijtimoiy hayotda kasblar imijini to`g`ri ko`rsatish, yurist uslubini takomillashtirish yo`l-yo`riqlari, bu sohadagi ma`lum muammolarga yechim ko`rsatib o`tildi.

**Kalit so`zlar:** imij,jamoa, yurist, brend, ishchi guruh, lider.

Dunyodagi barcha kasblar o`zaro bir-biriga ipsiz bog`langan. Jamiyatdagi, kasblar bir-birini taqazo etadi. Ular a`zolarining birlashishi jamoa hisoblanadi.

Jamoa – bir sohada turli ko`nikmalarga ega bo`lgan, bиргаликда ish yuritadigan kishilar birlashmasi (Huquqiy ko`nikmalar va metodologiya/darslik. Mualliflar jamoasi-Toshkent davlat universiteti-2022. 143-232 bet). Jamoa a`zolari -yuristlar o`rtasidagi munosabat ishlarning natijalarida namoyon bo`ladi . Ishchi guruh – bu birlashma individual munosabat va javobgarlikka asoslanadi. . Yurist o`z sohasida yetuk kadr bo`lib yetishmog`i uchun avvaliga ishchi guruhda, so`ngra faoliyatini jamoada olib bormog`i lozim. Endigina oliygojni tugatgan kishi o`z sohasi dengiziga sho`ng`ishdan oldin, bu dengizda suzish ko`nikmasini o`rganadi, qaysi payt bo`ron bo`lishi haqida, suzayotgan kemasini cho`ktiradigan sabablar to`g`risida, kema ichidagi shaxslarni boshqarish tartibini o`rganadi, bu bilimlarni mukammal egallaydi. Ishchi guruhdagi o`zaro sust ishonch va o`z qilmishiga o`zi javobgar bo`lish – yuristni kasbiy rivojlantiradi. Ushbu faoliyatdan so`ng yurist jamoa tuzishi yoki uning a`zosi bo`lishi to`g`ri. Yuqorida keltirib o`tilgan sifatlarga ega huquqshunoslar o`z jamoalarida muvaffaqiyatlar cho`qqisiga ko`tariladi. Bu yo`l-yo`riq faqat yuristlar uchun emas, balki jamiyatdagi har soha vakillariga taaluqlidir. Jamiyatdagi har soha mijozlar uchun faoliyat olib borishadi. Jamiyat esa -oiladan boshlanadi. Oila jamoaning eng barqaror ko`rinishidir. Jamoada lider pozitsiyasi bo`lib, oilada bu funksiyani ota bajaradi. Ota bir vaqtning o`zida ham lider, ham boshqaruvchidir.

Imij-ingliz tilida “siymo”, “ko`rinish”, “uslub” degan ma`no anglatadi. Jamiyatda ijobiy shaxsiy imij shakllantirish- xalq orasida ma`lum soha vakillariga bo`lgan ishonchni va repulatsiyani oshiradi. “Yaxshi obro`ga ega bo`lishning eng ma`qul



yo`li – tasavvuringizdagи yaxshi insonga o`xshashingizdir” (Huquqiy ko`nikmalar va metodologiya. Toshkent. Toshkent davlat universiteti-2022 .232-bet-156-betdan). Darhaqiqat, inson o`zga insonga o`xshamoqdan, hayoldagi o`ziga o`xshamoq oson va samaralidir. Ilmiy -ko`rinish, nafaqat ichki balki tashqi ko`rinishdir. Insondagi ijobiy zohiriylar va botiniy hislatlarni rivojlantirish – ayniqsa ijtimoiy hayotdagi soha vakillarida takomillashtirish – mamlakat rivoji uchun muhim qadamdir. Bu tamoyilni har bir kasb uchun joriy etmoq lozim, ammo huquqshunoslar orasida ko`proq isloh etmog`imiz kerak.

Yurist siyrati – ust kiyimi -dazmollangan, toza;soch turmagi-uncha e`tibor tortmaydigan ,tartibli ; qo`shimcha aksesuarlari odatiy va rasmiy bo`lmog`i lozim. Fitratida esa -adolat, insofiyemon va ma`suliyat bilan yashamog`i kerak . huquqshunos qonunlarni nazorat qilishi emas, ularni tushunishi va mohiyatini anglashi kerak. U mijozlar bilan ishlashda, ularni tinglay olishi, tushunishi, bu muammolargaadolat va tenglik bilan yechim topishi maqsadga muvofiqdir. “O`zbekiston respublikasida fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo`lib, tili, dini, jinsi, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeysidan qat`iy nazar tengdirlar.”(O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-2023. 118-bet-13-betdan 19-modda).

Bunday imijni shakllantirishning asosiy sabablaridan biri-omma o`rtasida barcha soha vakllariga ishonchni kuchaytirish, ular bilan erkin suhbatlasha olishlari, insonlar tafakkuridagi ideal kasb egalarini ularning talqinida namoyon etishdir. Shu vazifalarni bajarish uchun jamiyatda har bir “kasb brendi” ni yaratish va kadrlarni bu “brend” modeli sifatida tarbiyalash taklifi biz tomonimizdan ilgari suriladi. Kasb egalari, ayniqsa yuristlar o`rtasida noqonuniy hamda g`ayrivijdoniy holatlarni oldini olish uchun , jamiyatda, oddiy xalq o`rtasida huquqiy madaniyatni , ularning o`z huquqlarini amalga oshirishlarida qandaydir ashyolar emas , balki o`z bilimlari osonlashtirishini uqtirmoq – muammoga yechim bo`ladi, nazarimizda . “Oz-oz o`rganib don obo`lur, qatra-qatra yig`ilib daryo bo`lur”(Alisher Navoiy). Bu hikmatli so`zni ham ijobiy hislatlarni shakllantirishda, ham salbiylari ham shu tarzda o`sib boradi. Har qanday muammoning yechimi -ilmdir. Zero, Qur`oni Karimning ilk oyati “iqro”-“o`qi”dir.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalarga kelindi:

**Birinchidan**, yuristlarning imiji haqida gap ketgan birinchi galda ulardagi axloqiy va insoniy imijni shakllantirish va rivojlantirish ularning jamiyatdagi o`rnini mustahkamlaydi. Axloqiy va ma`naviy dunyoqarashning boyib borishi yuristlar



jamoasida xolislik, adolatlilik va insonparvarlik kabi xususiyalarni rivojlanishiga asos bo`lib xizmat qiladi.

**Ikkinchidan,** yuristlar jamoasida sog`lom ma`naviy muhitning shakllanganligi, ularning sog`lom raqobat olib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sog`lom ma`naviy raqobatning mavjudligi esa aynan yuristlarda liderlik xislatlarini keltirib chiqaradi. Liderlik esa o`z-o`zidan yuristlar jamoasiga nisbatan insonlarda ishonch hissini shakllantiradi. Demak, Yuristning imijida sog`lom ma`naviy raqobat muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Huquqiy ko`nikma va metodologiya-darslik- Mualliflar jamoasi-Toshkent-Toshkent Davlat Universiteti-2022-232bet.
2. Arxiv.uz rasmiy sayt
3. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-“O`zbekiston ”- Toshkent-2023-118 bet.

